

**Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi**



**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida  
QURILISH ISHLARI**

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi-

**2942,6 mlrd.so'm**

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi -

**16,1 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi -

**63,1 %**

Norasmiy sektor ulushi- **20,8 %**

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **2942,6** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **123,0** %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 472,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,1 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,0 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,1 %i yoki 1857,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,6 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 20,8 % yoki 613,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,2 %ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish tashkilotlari**

hajmi - **472,2 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **131,0 %**

**Kichik korxona va mikrofirmalar**

hajmi - **1857,0 mlrd.so'm**


o'sish sur'ati - **134,6 %**

**Norasmiy sektor**

hajmi - **613,4 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **94,2 %**

## Yanvar-sentyabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlardan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,2 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % punktga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 26,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,1 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,8 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.



## Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlaringin faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



- ▣ Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.

Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 69,3 % (7,1 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 30,5 %ni tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 57,0 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga kamaydi). Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 43,0 % (5,0 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,6 % punktga kamaydi va 17,9 %ni tashkil etdi.

Qolgan 82,1 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,6 % punktga ko'paydi.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari**

	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		
		<i>hududiy yirik qurilish</i>		
		<i>tashkilotlari</i>		
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2942,6</b>	<b>123,0</b>	<b>472,2</b>	<b>131,0</b>
Termiz sh.	880,4	133,6	36,8	122,5
tumanlar:				
Oltinsoy	53,9	114,3	-	-
Angor	118,9	107,9	-	-
Boysun	186,3	124,6	-	-
Denov	185,8	113,0	-	-
Jarqurg'on	177,3	106,6	1,3	-
Qiziriq	112,6	118,3	9,4	220,7
Qumqurg'on	124,9	108,1	29,5	114,8
Muzrabot	89,0	122,2	-	-
Sariosiyo	523,1	124,4	359,2	132,9
Termiz	169,6	119,4	3,2	394,4
Uzun	88,4	110,2	-	-
Sherobod	141,5	130,1	32,8	111,3
Sho'rchi	90,9	149,5	-	-

## **Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)**




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1857,0 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,1 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,6 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 472,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 16,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,0 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 20,8 % yoki 613,4 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,2 %ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida qurilish ishlari



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida tumandagi qurilish hajmining 74,8 %, Termiz tumanida 75,8 %, Boysun tumanida 72,2 % hamda Termiz shaxrida 88,6 %ni tashkil qildi.

## **2019 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlaringin mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da )**




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 62,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,1 %ni tashkil qildi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 2880,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,9 %ni tashkil qildi.




## Hududlarda qurilish ishlaringin o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,4 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlaringin asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlaringin 76,1 %ini tashkil qiladi.



## Yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 29,9 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyoy tumaniga 17,8 %, Denov tumaniga 6,3 % va Boysun tumaniga 6,3 % ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15  
(71)230-85-81**